

O‘ZBEK TILIDA RAVISHLARNING O‘ZGARMASLIK XUSUSIYATLARI

Xasanova Aqida Raximjon qizi

University of Economics and Pedagogy NOTM, assistenti

ADCHTI mustaqil izlanuvchisi

raximjonqizi093@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20628382>

Annotatsiya: Tilda mavjud bo‘lgan so‘zlarni turkumlarga ajratish tamoyillarining ba‘zilari barcha turkumlar uchun umumiy bo‘lsa, ayrimlari faqat aynan bir so‘z turkumi uchun amal qiladi. Masalan, ravishlarni alohida, mustaqil turkum sifatida qarashga asos bo‘lgan tamoyillardan eng muhimi bu – turkum doirasida qaraladigan so‘zlarning o‘zgarmasligi, turlanmasligi va tuslanmasligi deb e‘tirof etilgan. Bu qarashlar antik davr tilshunosligidan boshlab davom etib kelmoqda. Masalan, Frakiyalik Dionisiy, Kominian va Appoloniylarning ko‘rsatishicha, ravish turlanmaydigan, fe‘l haqida ma‘lumot beruvchi, uning ma‘nosini izohlovchi so‘z turkumidir¹.

Kalit so‘zlar: ravishlarning o‘zgarmaslik, semantic, funksional, sintaktik, integral, morfologik, shaklan.

Abstract: Some of the principles for dividing words in a language into categories are common to all categories, while others apply only to a specific category of words. For example, the most important of the principles that underlie the consideration of adverbs as a separate, independent category is the invariability, non-variability, and inflection of words considered within the category. These views have been maintained since the linguistics of antiquity. For example, Dionysius of Thrace, Cominian, and Apollonius showed that an adverb is a category of words that does not vary, provides information about the verb, and explains its meaning.

Keywords: invariance of verbs, semantic, functional, syntactic, integral, morphological, formal.

Keywords: invariance of verbs, semantic, functional, syntactic, integral, morphological, formal.

Kirish. O‘zbek tilidagi ravishlarning ilk tadqiqotchilaridan biri S.Fuzailov ham o‘z tadqiqotlarining asosiy xulosasi sifatida o‘zgarmaslik nazariyasini ilgari surgan: “O‘zbek tili ravishlarining boshqa so‘z turkumlaridan aniq va shubhasiz farqlaydigan o‘ziga xos morfologik shakllari nisbatan kam. Ular uchun xarakterli belgi – o‘zgarmaslik yoki kam o‘zgarishdir”².

T.Asadov esa quyidagilarni qayd etgan: “Turkiy tillarda ravishni ma‘no va vazifasi jihatdan (semantik-funksional) emas, balki tamoman boshqa, mustaqil so‘zlarning birortasiga xos bo‘lmagan belgi – *o‘zgarmaslik belgisi* asosida ism va ishoralar (olmosh)dan farqlash zarur. O‘zgarmaslik ravishning formal belgilaridan biridir”. “Ravish boshqa so‘z turkumlaridan faqat bitta asosiy belgi – morfologik (shaklan) o‘zgarmaslik tamoyili asosida ajraladi. Qolgan ikki belgi (semantik-leksik, sintaktik) esa ravishni boshqa mustaqil so‘z turkumlariga birlashtiruvchi (integral) belgilaridir”³. Ushbu fikrlarni bayon etishda u A.A.Potebnya, L.V.Shcherba singari atoqli olimlarning ravish “belgining belgisini ifodalovchi o‘zgarmas so‘zlar”, “o‘zgarmaydigan so‘zlarning

¹ Античные теории языка и стиля. – М.-Л: ОГИЗ, 1936. – с.135.

² Фузаилов С. О наречии в современном узбекском языке // Труды Среднеазиатского госуниверситета, Новая серия, вып. XXIV, Филологические науки, кн 1. – Ташкент, 1952. – с.21.

³ Асадов Т.Х. Сўз туркумлари тизимида равиш. – Тошкент: «Мухаррир», 2010. – 16, 33-бетлар.

mazkur xususiyati ham o'zgaruvchilarga nisbatan belgi sifatida olinishi mumkin” degan fikrlariga tayangan⁴.

Tadqiqot metodologiyasi. So'zlarning o'zgarmasligini qanday tushunish kerak? Yuqoridagi fikrlardan anglashiladiki, “o'zgarmaslik” ravishlarning tashqi – shakliy-morfologik jihatiga daxldor. Demak, “o'zgarmaslik” deyilganda ularning shakliy turg'unligi nazarda tutiladi: *tezda, birdan, tavakkaliga* kabi. Ular morfemalarga ajratilsa, ravishlik xususiyati yo'qoladi, ya'ni *bir+dan* ravish emas, otlashgan so'z sifatida qabul qilinadi: *birdan yarimni ayirsak* kabi.

Bir so'zi ishtirokida vujudga kelgan ravishlar soni bu bilan chegaralanib qolmaydi, ular ko'pchilikni tashkil etadi. Masalan, daraja-miqdor ravishlari: *birma-bir, bir necha, bir oz, bir talay, birqancha*; payt ravishlari: *bir vaqt, bir gal, birda, birdamas-birda, bir zamon, bir kuni, bir nav, birrov, bir umr*; o'rin ravishi: *bir chekkada*; holat ravishlari: *birakayiga, birato'la, birboshdan, birga, birgalikda, birdan, birdek, biryo'la, bir yoqlama, birin-birin, birin-ketin, birmuncha, birtaraflama* va hokazo. Bu shakliy rang-baranglikni qanday tushunish kerak? Garchi bu so'zlarning o'zagi *bir* so'zi bo'lsa ham, ularning har biri harakatning belgisini ifodalovchi alohida, turg'un mazmunga ega. Ta'kidlaganimizdek, ularni *bir+ga, bir+da, bir+dan* tarzida qabul qilish mumkin bo'lmaydi. Binobarin, ularning har biri aynan mana shu holatda ravish hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Shuning uchun ham *She'r chorlar, bir lahza asir bo'laman. Yonaman, kuyaman, toshib-to'laman* (U.Azim). *Oqshom ichgan mayining kayfi bir lahzada tarqab ketdi* (O.Yoqubov) misollardagi *bir lahza* va *bir lahzada* kabi birliklarni bir ravishning ko'rinishi sifatida qabul qilishimiz mumkin emas. Ular alohida-alohida ravishlardir. *Olampanoh, siz hukm qilsangiz, men bu yalmog'izni bir pasda yo'q qilurmen! Shundan so'ng bir pas o'ylanib o'ltirdi-da, keyin qo'shni chodirda turadigan Mir Alisherni chaqirtirdi* (O.Yoqubov) misollaridagi *bir pas* va *bir pasda* xususida ham shu gaplarni aytish mumkin. Biz bu yerda dialektikaning qarama-qarshiliklar birligi va kurshi hamda inkorni inkor qonunlarining amal qilishini kuzatamiz.

O'zgarmaslik boshqa so'z turkumlarida, masalan, sifatlarda ham mavjud, bu kabi xususiyatlar ularni o'zaro yaqinlashtiruvchi alomatlar sanaladi: *bevaqt o'lim / bevaqt kelmoq, jadal surat / jadal yurmoq, ko'ndalang devor / ko'ndalang turib qolmoq, uyg'urcha raqs / uyg'urcha kiyinmoq, faqirona hayot / faqirona yurmoq, feodallarcha munosabat / feodallarcha ezmoq, fidokorona mehnat / fidokorona ishlamoq, o'zbekona turmush tarzi, o'zbekona urf-odatlar / o'zbekona yashamoq* kabi. Ulardagi bu xususiyat mana bu misolda yana ham oydinlashadi: **Yaxshi bola yaxshi o'qiydi** kabi.

Xulosa. Ravishlarga xos bo'lgan asosiy grammatik belgi uning o'zgarmasligi hisoblanar ekan, nutqda bu qoidaga hamma vaqt ham amal qilib bo'ladimi, degan savol tug'iladi. Bu kabi savollarga aniqlik kuritish uchun dunyo tilshunosligidagi so'z turkumlariga oid fikr-mulohazalarga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Ular orasida rus tilshunosi A.A.Potebnyaning qarashlari e'tiborga molik. U “so'zning haqiqiy ma'nosi nutqda voqe bo'ladi, deb hisoblaydi. So'zning ma'nosi haqida lug'atga qarab emas, balki nutqdagi ma'no jilolariga qarab fikr yuritish lozim, chunki nutqda so'z har gal birgina fikr doirasida amalda bo'ladi, ya'ni, har safar talaffuz qilinganda va anglanganda u birdan ortiq ma'noga ega emas”. So'z turkumlariga yondashuvda A.A.Potebnya ularning sintaktik vazifasini birinchi o'ringa qo'yadi. “Tilni faoliyat sifatida tushungan holda fe'l, ot, sifat, ravish kabi grammatik kategoriyalarga o'zgarmas, inson tafakkurining doimiy xususiyatlaridan umrbod chetlatilgan narsalar sifatida qarash mumkin emas. U fe'l, ot, sifat, son, ravish kabi so'z

⁴ Асадов Т.Х. Сўз туркумлари тизимида равиш. – Тошкент: Мухаррир, 2010. – Б. 14, 17.

turkumlarining kelib chiqishini gap bo‘laklarining (ega, kesim, aniqlovchi, holning) shakllanishi va rivoji bilan bog‘laydi”⁵.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Античные теории языка и стиля. – М.-Л: ОГИЗ, 1936. – с.135.
2. Фузаилов С. О наречии в современном узбекском языке // Труды Среднеазиатского госуниверситета, Новая серия, вып. XXIV, Филологические науки, кн 1. – Ташкент, 1952. – с.21.
3. Асадов Т.Х. Сўз туркумлари тизимида равиш. – Тошкент: «Муҳаррир», 2010. – 16, 33-бетлар.
4. Асадов Т.Х. Сўз туркумлари тизимида равиш. – Тошкент: Муҳаррир, 2010. – Б. 14, 17.
5. Элтазаров Ж.Д. Сўз туркумлари ҳақидаги лингвистик назариялар. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1996. – 43-бет.

⁵ Элтазаров Ж.Д. Сўз туркумлари ҳақидаги лингвистик назариялар. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1996. – 43-бет.